

YUKLAMALARNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

O‘dayeva Shahnoza Shuxratovna

BuxDU, lingvistika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Buxoro, O‘zbekiston

e-mail: shahnozudayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yordamchi so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan yuklama haqida va uning pragmatik xususiyatlariga doir tushunchalar haqida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, yuklamalarning nutqiy voqelanishi bevosita uning pragmalingsvistik xususiyatiga doir jihat bo‘lib, bunda uning qo‘shimcha ma‘no anglatish xususiyati alohida ma‘no kasb etadi. Aytish joizki, bu holatda yuklamaning gap tarkibida anglatgan ma‘nosi nutqiy vaziyat, muayyan sharoit va shu kabilarga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: yuklama, pragmalingsvistika, yuklamalarning pragmalingsvistik xususiyatlari, nutqiy vaziyat, muayyan sharoit.

PRAGMALINGUISTIC PROPERTIES OF INTERJECTIONS

ABSTRACT

This article describes in detail the concept of interjection, which is one of the auxiliary word groups, and its pragmatic features. In addition, the verbalization of the load is a direct aspect of its pragmalinguistic nature, in which its additional semantic meaning has a special meaning. It should be noted that in this case, the meaning of the load in the sentence depends on the speech situation, certain conditions, and so on.

Keywords: interjection, pragmalinguistics, pragmalinguistic features of interjections, speech situation, certain situation.

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЧАСТИЦА

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно описывается понятие скачивания, которое является одной из вспомогательных групп слов, и его прагматические признаки. Кроме того, вербализация нагрузки является прямым аспектом ее прагмалинговистической природы, в которой особое значение имеет ее дополнительное смысловое значение. Следует отметить, что в данном случае

значение нагрузки в предложении зависит от речевой ситуации, определенных условий и так далее.

Ключевые слова: частица, прагмалингвистика, прагмалингвистические особенности частица, речевая ситуация, определенные условия.


O‘zbek tilida yordamchi so‘z turkumlarining – ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamaning - asosiy vazifasi gapga yoki so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklash, so‘zni so‘zga yoki gapni gapga bog‘lash hisoblanadi[1,118]. Ular mustaqil ma’noga ega emasligi bilan mustaqil so‘z turkumlaridan butunlay farq qiladi. Biz tadqiq etmoqchi bo‘lgan mavzu bu yuklama yordamchi so‘z turkumining pragmalingvistik xususiyatlari bo‘lib , uning nutqiy voqelanishi ma’lum sharoit yoki vaziyatni taqozo etadi. Ko‘makchi yoki bog‘lovchi kabi yordamchi so‘z turkumlariga nisbatan olib qaralganda, yuklama yordamchi so‘z turkumining pragmatik jihatlari ko‘proqdir. Sababi, uning nutqda namoyon bo‘lishi so‘zlovchining ma’lum tanlovi asosida yuzaga keladi[4,49]. Xususan, *go‘yo* qiyoslash-chog‘ishtiruv yuklamasini oladigan bo‘lsak, uning badiiy uslubga xos ekanligi, so‘zlashuv uslubida kamdan kam hollarda qo‘llanilishi, undan foydalanish uchun ma’lum vaziyatning mavjud bo‘lishi, ushbu yuklamaning ma’nosi o‘xshatish-qiyoslash ekanligini inobatga olgan holda aytishimiz mumkinki, *go‘yo* qiyoslash-chog‘ishtiruv yuklamasi ishtirok etgan nutqda bevosita ma’no nozikligi namoyon bo‘ladi:

***Go‘yo chiqdi osmondan quyosh,
Ko‘zdan sizgan qatra-qatra yosh.***

Yuklama yordamchi so‘z turkumining o‘ziga xos ma’nolari kuchaytiruv-ta’kid, ayirish-chegaralash, o‘xshatish kabi ma’nolarining irod etilishi nutqiy muloqotdagi ovoz toniga ham bevosita daxldor hisoblanadi. Bunda aytilayotgan yuklamaga qay darajada urg‘u bera olish so‘zlovchi diqqat markazining yuklamaga qaratilishiga sabab bo‘ladi.

-dir gumon yuklamasini olaylik. Ushbu yuklamaning pragmatik jihatdan voqelanishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, u ilmiy va rasmiy uslubdan boshqa uslublarda bemalol qo‘llanila oladi, asosiy qo‘llanadigan uslublar esa badiiy va so‘zlashuv uslublari hisoblanadi[12]:

-dir yuklamasining uslublarda qo‘llanilish doirasi (1-chizma).



-dir gumon yuklamasining og‘zaki nutqda qo‘llanilishi ma’lum so‘z turkumlari yordamida amalga oshadi[8,110], xususan:

- Fe‘l so‘z turkumiga qo‘shilishi orqali unga gumon ma’nosini yuklaydi: **kelgandir, aytgandir** va hokazo.
- To‘liqsiz fe‘llardan bir bo‘lmish **“emas”** so‘ziga: **Yozgan faqat siz emasdir!**
- So‘roq olmoshlari bilan birgalikda qo‘llanilib, ularda gumon ma’nosi mavjud ekanligiga urg‘u beradi: **kimdir, sendir, mendir va hokazolar.**

Ta’kidlash o‘rinliki, yuklamalar og‘zaki nutqiy vaziyatda namoyon bo‘lganda so‘zlovchining emotsional jihatdan his-tuyg‘ularini namoyon etishga ham yordam beradi, bu holatda **“faqat”** yuklamasini ko‘rib chiqamiz. Faqat yuklamasi gap tarkibida ayiruv-chegaralov ma’nosini ifoda etishi bilan birga nutq so‘zlovchining his-hayajonlarini ham namoyon qilishi mumkin, xususan, jahl, ojizlik, muhabbat va hokazo. Ushbu ma’nolarni misollar yordamida ko‘rib chiqamiz.

“Faqat” yuklamasining emotsional ma’nolari(2-chizma).



Faqat senmi ovozi ko‘taradigan, men ham buning uddasidan chiqaman, bilib qo‘y – ushbu gapda “faqat” so‘zi emotik jihatdan “jahll” ma’nosini ifodalab kelmoqda, bu so‘zlovchining nutqiy muloqotidan, qo‘llagan so‘zlaridan ma’lum bo‘ladi.

Faqat men qoldim bora olmagan, yuragini senga yora olmagan – ojizlik ma’nosi aks etgan ushbu gapda ayiruv-chegaralov voqeligi ham namoyon bo‘lmoqda.

Faqat seni sevaman, faqat senga talpinar yurak – qayd etilgan ushbu gapda “faqat” ayiruv-chegaralov yuklamasining ma’nosi orqali so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga, ya’ni II shaxsga muhabbat hissi aks ettirilmoqda.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, yuklama yordamchi so‘z turkumining nutqiy voqelanishi bu uning pragmalingsvistik xususiyati hisoblanib, uning yordamida nutqda aks etgan muloqotning mazmuni va ma’nosi so‘zlovchi uchun yanada tushunarli bo‘lishga xizmat qiladi. Yuklama ifodalagan pragmatik ma’no undagi hissiyot, ma’no oydinlashuvi uchun yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006. - B.397.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009. - B.310.
3. Зикриллаев Ф.Н. Фейлинг шахс, сон, хурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. -111 б.
4. Иванов С.Н. Родословное древо – тюрк Абдул – Гази – Хана. Грамматический очерк. Имя и глагол. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 24.

5. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: СамДУ, 1992.
6. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М-Л., 1960. -С.328-329.
7. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Конспектив курс.- Бухоро: БухДУ нашри, 1999. -Б.216-220.
8. Қурбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). -Т., 2002.
9. Матғозиев А. XIX аср ўзбек тилининг морфологияси.- Тошкент: Фан, 1977.
- 10.www.hozir.org
- 11.www.wikipedia.org
- 12.www.google.com